



Dilshod M. DJURAEV,

PhD, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: fdx8585@mail.ru, ORCID:0000-0002-1030-4791

PhD A.To'xtamishiev taqrizi asosida

CHARACTERISTICS OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE CHINESE LANGUAGE

Annotation

The rapid expansion of globalization has significantly increased interaction among people from diverse cultural backgrounds. In these exchanges, language plays a crucial role as the primary medium for communication and mutual understanding. Chinese (汉语 – hànyǔ) is one of the most widely spoken languages in the world and serves not only as a tool for communication but also as a carrier of the cultural values, traditions, and worldview of the Chinese people. From this perspective, intercultural communication conducted through the Chinese language possesses distinctive linguistic and cultural features that may both enrich interaction and create potential barriers.

Keywords: Chinese language, culture, intercultural communication, barriers.

ОСОБЕННОСТИ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В результате ускорения процесса глобализации контакты между представителями различных культур с каждым днём расширяются. В таком общении язык является основным средством коммуникации. Китайский язык (汉语- hànyǔ) является одним из языков с наибольшим числом носителей в мире и выступает не только средством общения, но и отражением культурных ценностей китайского народа. С этой точки зрения межкультурная коммуникация, осуществляемая на китайском языке, обладает своими специфическими особенностями.

Ключевые слова: китайский язык, культура, межкультурная коммуникация, барьер.

XITOIY TILIDA MADANIYATLARARO MULOQOTNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Globalizatsiya jarayonining jadallashuvi natijasida turli madaniyat vakillari o'rtasidagi aloqa kundan-kunga ko'paymoqda. Bunday muloqotda til asosiy vosita hisoblanadi. Xitoy tili (汉语- hànyǔ) dunyodagi eng ko'p so'zlashuvchilar soniga ega tillardan biri bo'lib, nafaqat aloqa vositasi, balki Xitoy xalqining madaniy qadriyatlarini ham aks ettiradi. Shu nuqta nazardan qaralganda, xitoy tilida olib boriladigan madaniyatlararo muloqot o'ziga xos jihatlarga ega.

Kalit so'zlar: Xitoy tili, madaniyat, madaniyatlararo muloqot, to'siq.

Kirish. Madaniyatlararo muloqot - bu turli madaniy muhitga ega bo'lgan odamlar o'rtasidagi, madaniyat asosida muloqotni o'rganishga asoslangan aloqa faoliyatidir. Xitoy tilini xorijliklarga o'rgatish faoliyatining mohiyati ham aslida madaniyatlararo muloqot hisoblanadi. Turli mamlakatlardan kelgan, turli madaniyat, urf-odat va bilimlarga ega bo'lgan talabalar ishtirok etadigan dars jarayonida madaniy farqlar aniq namoyon bo'ladi. Shu bois, xitoy tilini o'rgatuvchi o'qituvchilar dars davomida talabalar o'rtasidagi farqlarga alohida e'tibor qaratishlari, o'zlarining madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishlari zarur. Faqat shundagina ular dars jarayonida erkin harakat qilib, har bir talabaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim berishlari, shu orqali talabalar bilim olish samaradorligini oshirishlari va ta'lim sifatini yaxshilashlari mumkin bo'ladi (曹群, 2020, 196).

Xitoylik olim Shi Jongying madaniyat haqida quyidagi fikrni bildirdi: "Madaniyatning minglab tariflari bor, xitoy tili va madaniyati turli yondashuvlarda o'rganuvchi davlatlar turli davrlar, turli fanlar va turli odamlar, turli fanlar va turli odamlar fikrlariga ega bo'lishgan" (石中英, 2003, 83).

Madaniyatlararo muloqotda stereotiplar va oldindan belgilangan fikrlar paydo bo'ladi, bu esa qabul qilishni buzishi va noto'g'ri tushunishlarga olib kelishi mumkin. Madaniyatlararo muloqotda muvaffaqiyatli bo'lish uchun turli madaniyatlarning farqlariga nisbatan empatiya, tushunish va hurmat ko'rsatish muhimdir. Madaniyatlararo muloqotning

tadqiqotlarida G. Hofstede ning madaniy o'lchovlari, P. Brown va S. Levinsonning politeness, Ch. Callahan ning kommunikativ moslashuv kabi yondashuvlari faol qo'llaniladi. Bu yondashuvlar turli madaniyatlardan bo'lgan odamlar o'rtasidagi muvaffaqiyatli o'zaro ta'sir qilishga, ta'sir qiluvchi omillarni tushunishga va to'siqlarni yengib o'tish uchun qo'llaniladigan strategiyalarni aniqlashga yordam beradi (Straub J, 2006, 11).

Madaniyatlararo muloqotning qiyinchiliklari - bu yondashuv, William B. Gudykunst va Young Yun Kim tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, madaniyatlararo muloqot jarayonida paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni va notushunishlarni tushuntirishga qaratilgan. Ular, madaniyatlararo muloqotda xavfsizlik, o'z-o'zini tasdiqlash va o'zaro tushunish kabi omillarni muhim deb hisoblaydilar. Madaniyatlararo muloqotning dinamik modeli - Milton J. Bennett tomonidan ishlab chiqilgan bu model, shaxslarning madaniyatlararo muloqotda rivojlanish bosqichlarini tasvirlaydi. Uning "madaniyatlararo sensibiliti" modeli, shaxslarning madaniyatlararo muloqotda qanchalik samarali ishtirok etishini baholash uchun ishlatiladi.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Madaniyatlararo muloqotni chuqurroq tushunish va uni yanada samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy qurilmalar hisoblanadi. Ularning yordami bilan biz, turli madaniyatlarning vakillari bilan muloqot qilishda yanada ongli va samarali bo'lishimiz mumkin. Madaniyatlararo muloqotni o'rganish va amaliyotga

tabiiq etishda ushbu nazariyalar muhim rol o'ynaydi va ularsiz madaniyatlararo muloqotning murakkabligini to'liq tushunish qiyin bo'ladi (Moon, D. G, 1996, 44).

Ter-Minasova ta'kidlaganidek, "pedagogik jarayonda madaniyatlararo muloqotda ishtirok eta olish qobiliyati asosiy o'rinni egallashi kerak, bu, ayniqsa, hozir juda muhim, xalqlar, tillar, madaniyatlarning bir-biriga aralashuvi mislsiz keng quloqch yoyganida - o'zga madaniyatlarga nisbatan bag'rikenglikni tarbiyalash, ularga qiziqish va hurmat hissini uyg'otish hamda o'zida o'zga madaniyatlardagi ortiqchalik, yetishmaslik yoki o'xshamasligidan g'ashlanish hissini yengish kabi muammolar ko'ndalang turdi. Aynan shu munosabat bilan madaniyatlararo kommunikatsiya masalalariga nisbatan har tomonlama qiziqish uyg'ongan (Sayaxova L.G. 2003, 9).

Muloqot jarayonida tez-tez uchrab turadigan murojaat qilish madaniyati xitoylarda o'zbeklarnikidan birmuncha farq qiladi. Bunga misol sifatida xitoylik talabalar o'qituvchilariga murojaat qilganda "Ma Professor yoki Yang ustoz" deb muloqotga kirishadi, bundan tashqari, birinchi familiyasini keyin lavozimini aytib murojaat qilishadi. O'zbek madaniyatida hurmat yuzasidan "ism-sharifini" aytib murojaat qilishadi.

Talaba xitoy tilini juda yaxshi o'zlashtirgan, gapirishlari juda ravon bo'lishiga qaramay, universitetimizda ish faoliyatini olib borayotgan ustoz Vangga kutilmaganda 大妈 dama deb murojaat qildi, bunday murojaat uni boshqa xitoylik o'qituvchilar oldida noqulay vaziyatga solib qo'ydi. Chunki "大妈 dama" deb murojaat qilish xitoy tilida yoshi katta ma'nosidan tashqari, bu so'zning semasi madaniyat jihatidan biroz sayozligini ham ko'rsatadi. Bundan tashqari, ustoz Jang Xitoydan kelgan vaqtda undan sog'ligingiz yaxshimi deb so'ralganda mening sog'ligim yaxshi, xitoyda faqat kasal odamdan sog'lik so'raladi, deb javob qaytargandi (Talabalar orasida murojaatning xato qo'llanilishi xitoyliklarni noqulay ahvolda solib qo'yadi).

Tahlil va natijalar. Xitoy madaniyatining asosiy qadriyatlarini Xitoy madaniyati Konfutsiychilik, daoizm va buddizm kabi qadimiy ta'limotlarga asoslangan. Bu ta'limotlar madaniy muloqotda quyidagi jihatlarning namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi:

Hurmat va iyerarxiya (礼 - lǐ) – suhbatdoshning yoshi, maqomi, ijtimoiy mavqeyi hisobga olinadi.

Yuzni saqlash tushunchasi (面子 - miànzi) – muloqotda kimgadir noqulaylik tug'dirmaslik, tanqidni bilvosita ifoda qilish.

Hamjihatlik va muvozanat (和 - hé) – kelishmovchilikdan qochish, murosaga intilish.

Jamoaviylik (集体主义 - jítǐ zhūyì) – individual fikr emas, balki jamoa manfaatlarini ustuvor bo'ladi.

Bu qadriyatlar tilga ham, muloqot uslubiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Xitoy tilidagi muloqot uslubining xususiyatlari

Boshqa madaniyat vakillariga nisbatan noaniqlik (含蓄 - hánxù)

Xitoy tilida fikrlar ko'pincha bilvosita, kinoyaviy yoki umumiy tarzda ifodalanadi. To'g'ridan-to'g'ri rad javoblar kam qo'llaniladi. Masalan:

“我考虑一下吧” (Wǒ kǎolǔ yíxià ba) – “Men o'ylab ko'ray” degan jumla rad qilish ma'nosini bildirishi mumkin.

Salomlashuv va xushmuomalalik formulalari

Xitoy tilida muloqot ko'p hollarda rasmiy salomlashuvlar, hurmat bildiruvchi iboralar bilan boshlanadi:

“您贵姓?” (Nín guì xìng?) – “Hurmatli familiyangiz nima?”

“请多关照” (Qǐng duō guānzào) – “Iltimos, e'tibor bering (yordam kutaman).”

Xitob va murojaat shakllari

Odamlarga murojaat qilishda yosh, lavozim, jins va ijtimoiy maqom inobatga olinadi:

老师(lǎoshī) – ustoz

经理(jīnglǐ) – direktor

小姐(xiǎojiě), 先生(xiānsheng) – hurmatli ayol, janob

Tana tilining roli

Xitoyliklar muloqotda hissiyotlarini ifodalashda yuz ifodasi va tana tiliga kamroq tayanadilar. Ular ko'proq so'z orqali ijtimoiy muvozanatni saqlashga intiladilar.

Madaniyatlararo muloqotdagi muammolar va yechimlar

Xitoy tilida muloqot qilayotgan boshqa millat vakillari quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin:

Tilshunoslikdagi farqlar: Xitoy tilidagi tonlar, iyerogliflar va grammatika o'ziga xos bo'lib, begona kishilar uchun murakkab tuyuladi.

Madaniy noaniqlik: To'g'ridan-to'g'ri tanqid yoki savollar Xitoyliklar tomonidan qo'pollik deb qabul qilinishi mumkin.

Tushunmovchiliklar: Chet tillarga mandarin tilini o'qitish jarayonida, boshlang'ich talaba bo'lsin, talaffuzdagi xatolar, so'z boyligining yetishmasligi, grammatik tuzilmalardagi xatolar yoki pragmatik (muloqotga oid) ifodalardagi noto'g'rilik, axborotni qabul qiluvchi tomonning tushunishida chalg'itishga olib kelishi mumkin va natijada muloqotda to'siqlar yuzaga keladi (蔡莉 2015, 94).

Masalan, xorijlik talabalar do'konda sotuvchi bilan muloqot qilayotganda: “Men o'sha shimning yuqorisini xohlayman” degan ibora ishlatadi. Bu, albatta, talabalar hali mandarin tilida kiyimning aniq qismlarini to'liq egallamaganligi va xitoy tilida kiyimlarni tavsiflashdagi maxsus odatlarni bilmasligi sababli yuzaga keladi, natijada muloqotda chalkashlik kelib chiqadi. Mandarin tilida “裤子的上面” (“shimning yuqorisi”) kiyimning aniq qismiga ishora qiluvchi ifoda emas; odatda mahalliy aholi “裤腰” (bel qismi) yoki “裤腿” (shim oyoq qismi) kabi aniq atamalarini ishlatadi.

Bundan tashqari, xitoyliklar kiyim qismlarini nomlashda uning funksiyasi yoki joylashuviga qarab atashadi, masalan: “衣领” (yoqa), “袖口” (qovoq) kabi. Xorijlik talabalar esa ko'pincha qismlarni to'g'ridan-to'g'ri tavsiflashga yoki ingliz tilidagi tarjimaga tayangan holda ifodalaydi.

Shuningdek, “福” harfi misolida: Xitoy madaniyatida, bahor bayrami (Chun Jie) vaqtida “福” harfi teskari yopishtiriladi, bu “baxt keldi” degan ma'noni bildiradi va omad va saodatni ramziy qiladi. Bu urf qadimiy davrlardagi baxtli hayotga bo'lgan intilish va tilakdan kelib chiqqan. Boshqa madaniyatlarda esa shunday urf-odat yoki ramziy ma'no bo'lmasligi mumkin, ba'zida “福” harfi tushunchasi umuman boshqacha talqin qilinadi.

Yechim sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:

Xitoy madaniy qadriyatlarini haqida chuqur bilimga ega bo'lish;

Kontekstual muloqotni tushunishga o'rganish;

Bilvosita ifodalarni to'g'ri talqin qilish;

Til o'rganish jarayonida madaniyat bilan tanishishni birgalikda olib boirish.

Xulosa. Xitoy tilida madaniyatlararo muloqot, bu faqat lingvistik bilim emas, balki madaniy anglashni ham talab qiladigan murakkab jarayondir. Xitoyliklar bilan samarali muloqot o'rnatish uchun ularning madaniy qadriyatlarini, ijtimoiy muloqotdagi odatlari va til uslubini chuqur o'rganish zarur. Shundaygina turli madaniyatlar o'rtasida o'zaro hurmatga asoslangan, samarali va barqaror aloqalarni yo'lga qo'yish mumkin bo'ladi.

Madaniy xususiyatlar har bir xalq yoki davlatning o'ziga xos tarixiy merosi, qadriyatlarini, e'tiqodlari, urf-odatlarini

va xulq-atvor tarzining majmuasi sifatida shaxsning fikrlash uslubi va xatti-harakat odatlariga chuqur singib ketgan bo'lib, xorijlik talabalar madaniyatlararo muloqot qobiliyatiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Bir tomondan, madaniy xususiyatlar talabalar dunyoqarashi va qadriyatlarini shakllantiradi, ularning turli madaniy hodisalarni tushunish va qabul qilish darajasiga ta'sir qiladi.

Ikkinchi tomondan, madaniy xususiyatlar noverbal (so'zsiz) muloqotda ham namoyon bo'ladi. Turli madaniyatlar noverbal xatti-harakatlarni talqin qilishda sezilarli farqlar ko'rsatishi mumkin. Xitoy tilini o'rganish mobaynida talabalar o'rganilayotgan mamlakatning madaniyati, urf-odatlarini, an'analarini bilib olish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Shu bilan birga, bunda bir qancha qiyinchiliklar ham yuzaga kelmoqda. Auditoriyada talabalar bilim darajasining teng emasligi, guruhda talabalar sonining ko'pligi, lisoniy muhit mavjud emasligi shular jumlasidan.

Xitoy tilini yaxshi o'zlashtirgan va o'rganayotgan talabalarda quyidagi, xitoy va o'zbek tilida madaniyatlararo muloqot jarayonida; lingvokulturologik leksikalarda; maqol va

iboralar talqinida; matnlarda uchragan milliy madaniy xususiyatlarda; lakuna va realiyalarda; rang va raqamlar, milliy madaniy xususiyatlarini o'rganish jarayonida lingvokulturologik interferentsiya yuzaga keladi. Talabalar o'rtasida olib borilgan so'rovlardan quyidagilar ma'lum bo'ldi: ko'plab talabalar xitoy tilini o'rganish orqali uning madaniyati haqida ham yetarlicha ma'lumot olishni xoxlashadi, ya'ni xitoy tilini o'rganishning amaliy maqsadi ularning Xitoy madaniyati haqida ma'lumot olishga bo'lgan qiziqishi; talabalar davlatning siyosiy, iqtisodiy, jug'rofiy qadriyatlarini, tafakkur xususiyatlarini, an'anaviy va etnik urf-odatlarini bo'yicha barcha bilimlarga ega bo'lishga intilishadi.

Xitoy tilini o'rganishni xohlovchi talabalarda lingvokulturologik kompetentsiyani shakllantirish ularni aynan xitoy madaniyati bilan tanishtirishdan boshlanadi. Har bir xalq madaniyati uning tili orqali bayon qilinadi, tushuntiriladi, o'rgatiladi. Xitoy tilini boshlang'ich bosqichdagi talabalarga o'rgatishda lingvokulturologik kompetentsiyani shakllantiruvchi xushmuomalalik, kamtarlik va hurmat kabi kategoriyalarni kiritdik.

ADABIYOTLAR

1. 曹群佳 木斯大学社会科学学报 对外汉语教师跨文化交际能力提升策略研究 2020年 196-页.
2. 石中英 教学学的文化性格 M. 太原: 山西教育出版社, 2003: 183页
3. Straub J., & Weidemann, D. (2006). Psychology, culture, and the pursuit of meaning: An introduction. In J. Straub, D. Weidemann, C. Kölbl, & B. Zielke (Eds.), Pursuit of meaning. Advances in cultural and cross-cultural psychology p. 120.
4. Moon, D. G. (). Concepts of culture. Implications for intercultural communication research. Communication Quarterly, 1996, 84.
5. Sayaxova L.G. Spetskurs «Russkiy yazыk v dialoge kul'tur» v sisteme professional'noy podgotovki studentov-filologov. V: Sopostavitel'naya filologiya i polilingvizm // Sb. nauch. trudov Kazanь.: 2003, – S.127-135.
6. 蔡莉 在对外汉语教学中培养留学生跨文化交际能力[J]. 当代教育实践与教学研究(电子刊), 2015(3): 139页
7. INTERNET SAYTLARI
8. <http://uz.m.wikipedia.org/wiki/Leksika>
9. <http://www.Google.ru>
10. <https://www.baidu.com>
11. <https://www.cnki.net>